

NOTO'LIQ OILALARDA VOYAGA YETAYOTGAN BOLALARNING PSIXOLOGIK RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI VA ULARNI QO'LLAB-QUVVATLASH STRATEGIYALARI

Xakimova Sarvinoz Sharifjon qizi
Namangan davlat Pedagogika instituti
Psixologiya mutaxassisligi magistri
Tel raqami: 94 174 68 03

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada noto'liq oilada tarbiyalanayotgan bolalarning psixologik rivojlanish xususiyatlari tahlil qilinadi, ularning emotsional, ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishida yuzaga keladigan muammolar o'rganiladi hamda psixologik qo'llab-quvvatlash strategiyalari bo'yicha tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: Noto'liq oila, bola psixologiyasi, emotsional barqarorlik, o'ziga ishonch, , psixologik qo'llab-quvvatlash, oilaviy muhit, ruhiy rivojlanish

АННОТАЦИЯ

В статье анализируются особенности психологического развития детей, воспитывающихся в неблагополучных семьях, изучаются проблемы, возникающие в их эмоциональном, социальном и личностном развитии, а также даются рекомендации по стратегиям психологической поддержки.

Ключевые слова: Неблагополучная семья, детская психология, эмоциональная стабильность, уверенность в себе, психологическая поддержка, семейная среда, духовное развитие.

ANNOTATION

This article analyzes the characteristics of psychological development of children raised in dysfunctional families, studies the problems that arise in their emotional, social and personal development, and provides recommendations on psychological support strategies.

Keywords: Dysfunctional family, child psychology, emotional stability, self-confidence, psychological support, family environment, spiritual development

Kirish. Bugungi globallashuv va ijtimoiy o'zgarishlar davrida oilaning mustahkamligi jamiyat barqarorligi uchun asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, zamonaviy hayot sharoitida noto'liq oilalar sonining ortishi ijtimoiy-psixologik muammo sifatida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Oila — bolaning shaxs sifatida shakllanishi uchun eng muhim ijtimoiy muhitdir. Ota va ona o'rtasidagi emotsional aloqalar, rollarning taqsimoti va mehr-muhabbatning to'laonli taqdim etilishi bola psixikasining sog'lom rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Biroq zamonaviy ijtimoiy jarayonlar natijasida noto'liq oilalar soni ortib bormoqda. Bunday sharoitda bola hayotining muayyan davrida ota yoki onasidan biri yo'qligi psixologik rivojlanishda turli xil o'zgarishlarga sabab

bo'ladi. Afsuski barcha oila ham ota-ona va ular dunyoga keltirgan farzandlar bilan to'liq bo'lavermaydi. So'nggi yillarda turli sabab bo'yicha noto'liq bo'lgan oilalar ko'payib bormoqda. Noto'liqlik sabablaridan biri ajrimlardir. Ajrim bo'lgan oilaning salkam 1% dagina bolalar otaning qo'lida qoladi. Qolgan holatlarda voyaga yetmagan bolalar onalari bilan yashaydilar. S. Kraxotvil ajrim jarayoning quyidagi bosqichlarini ajratgan.

1. Bosh ko'tarish bosqichi: xo'rlangan va norozi ayol o'z faoliyatini oshirib ajrim sodir bo'lmasligining oldini olish uchun muayyan say-harakatlarni amalga oshiradi.

2. Tushkunlikka tushish bosqichi: ajrashishni hohlamagan tomon vaziyatni boshqara olmaganligini tan olib, tushkunlik, depressiya(uzoq vaqtli tushkun holat) tushadi va endi o'zini ham ayblay boshlaydi.

3. Bo'yniga olish bosqichi: ajralishni hohlamagan tomon endi mavjud holat bilan kelishib, bunday nikohning bo'lganidan bo'lmagani maqulligini tan ola boshlaydi.

Asosiy qism. Noto'liq oila - ota yoki onadan biri bo'lmagan, farzand tarbiyasi asosan bitta shaxs zimmasiga tushadigan oilaviy tizim bo'lib, bunda bolaning psixologik rivojlanish jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Noto'liq oilada tarbiyalanayotgan bolalarning ruhiy rivojlanishida quyidagi asosiy o'zgarishlar kuzatiladi: emotsional barqarorlikning pasayishi, o'ziga ishonchning yetarli shakllanmasligi, ijtimoiy moslashuvdagi sekinlashuv, mas'uliyatning erta rivojlanishi, hissiy bog'lanish ehtiyojining kuchayishi va idealizatsiya yoki rad etish mexanizmlarining paydo bo'lishi kuzatiladi. Shu bois noto'liq oilalarda voyaga yetayotgan farzandlarning psixologik holatini o'rganish va ularga samarali psixologik-pedagogik yordam ko'rsatish bugungi psixologiya fanining muhim yo'nalishlaridan biri sanaladi. Noto'liq oilada tarbiyalanayotgan bolalar ko'pincha emotsional barqarorlikda uzilishlar, o'ziga ishonchning yetarli shakllanmasligi, ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklar va hissiy bog'lanish ehtiyojining kuchayishi kabi psixologik xususiyatlar bilan ajralib turadi. Bu holat ularning shaxsiy rivojlanishida ham, kelajakdagi munosabatlarida ham muhim ta'sir ko'rsatadi. Agarda bunday farzandlarni har qanday ehtiyojlari vaqtida qondirilmasa o'zini yolg'iz his qiladi. Oddiy qilib aytganda, emotsional barqaror odam: qiyin vaziyatda ham haddan tashqari vahimaga tushmaydi; o'z his-tuyg'ularini boshqalarga zarar yetkazmaydigan tarzda ifodalay oladi; quvonch yoki g'am kabi kuchli hislarni ham me'yorida boshdan kechiradi. Psixologik jihatdan, emotsional barqarorlik — bu temperament, xarakter, tajriba va stressga chidamlilikning uyg'unlashuvi natijasida shakllanadigan shaxsiy sifat. U odatda quyidagi omillarga bog'liq:

- ✓ Ichki o'ziga ishonch;
- ✓ Ijobiy dunyoqarash;
- ✓ Stressni boshqarish ko'nikmalari;

Noto'liq oilada bolaga tarbiya va moddiy ta'minotning katta qismi bitta shaxs (ota yoki ona) zimmasiga tushadi. Sizda savol tug'ilishi mumkin. Bunday oilada bir tomonga rol ortishi unga va atrofdagilarga qay daraja salbiy ta'sir qiladi? Bunday vaziyat bola hayotida psixologik, ijtimoiy va tarbiyaviy jarayonlarga ta'sir qiladi — masalan, bola o'zini yolg'iz his qilishi, emotsional qo'llab-quvvatlash yetishmasligi

yoki ijtimoiy moslashuvda qiyinchiliklar bo'lishi mumkin. Mening fikrimcha, noto'liq oilalar sonining kun sayin ortib borishi sabablarini quyidagilar tashkil qiladi. Buning eng asosiy sabablaridan biri - yoshlarimiz oilaviy hayot haqida to'laqonli va psixologik pedagogik jihatdan to'g'ri savodli tasavvurga ega emasligi. Aksariyat yoshlar oilaviy xayotni «asal oyi» kabi tasavvur qiladilar, vaxolanki oilaviy hayot har bir yosh uchun katta taqdir sinovidir. Har bir oila turli iqtisodiy, axloqiy, individual-psixologik, shu jumladan, sabr-chidamlilik sinovini boshidan o'tkazadi. Shu o'rinda Suqrotning "O'zgalarni o'zgartirmoqchi bo'lgan inson, avvalo o'zini o'zgartirishi lozim. Oila muqaddas! Ammo bugungi yoshlar oilaga nisbatan befarqlik yoki chidamsizlik qilib, farzandlar hotirjamligini o'z qo'llarini bilan barbod qilmoqdalar. Hozir er va xotin munosabatlaridan qoniqmaslik hissi deyarli barcha insonlarda ortib bormoqda. Ular o'ylamaydilarki, bu hayotta hech kim siz o'ylagandek emasligini, hamma ham hato qilishi, kechirimli bo'lishlik yoki bo'lmasa oddiy qilib aytganda sabr neligini va hokazo sabablar. Afsuski, yosh oilalarning ma'lum bir qismi bu sinovlarga bardosh berolmay, noto'liq oilalar sonining keskin o'sishiga olib keladi.

Xulosa o'rnida shuni aytishim mumkinki, oilalarning shaxsiy hayotiga qo'pol ravishda aralashmasligimiz darkor va shu bilan birga, biz yoshlarning oilaviy hayotida uchrashi muqarrar bo'lgan sinov va muammolarga oldindan tayyorlab, uni oila to'liqligi, oila a'zolar salomatligiga salbiy ta'sir etmagan holda hal qilish, sinovlardan yosh oilani talofatsiz olib chiqishga yordam berishimiz lozim deb xisoblayman.

Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati:

1. Akramova F.A. "Oilada muomalani tashkil etish psixologiyasi" Toshkent 2006.
2. Davletshin M.G, Shoumarov G'.B, Sog'inov G'.B. "Zamonaviy o'zbek oilasi va uning psixologik xususiyatlari" Toshkent-1993
3. Karimova V. M "Oila psixologiyasi" Toshkent- 2007 22-bet
4. Umarov B.M. -PSIXOLOGIYA „Voris-nashriyot "Toshkent — 2012